

## **ANDIJON SHAHRI YO'NALISHLARIDA AVTOBUSLARNING SIG'IMI VA HARAKATLANISH INTERVALINI MAQBULLASHTIRISH**

***Shodmonov Sayidbek Abduvayitovich***

*Andijon mashinasozlik instituti, "Transport logistikasi" kafedrasida assistenti*

*E-mail: [sshodmonov1989@gmail.com](mailto:sshodmonov1989@gmail.com);*

***Azimov Ne'matillo Raxmatillo o'g'li***

*Andijon mashinasozlik instituti, "Transport logistikasi" yo'nalishi talabasi*

*E-mail: [nematillo.azimov@icloud.com](mailto:nematillo.azimov@icloud.com)*

Hozirgi kunda Andijon shahrida avtobuslar harakati to'g'ri tashkil etish. Avtobuslar orasidagi intervallar shahar jamoat transporti foydalanuvchilariga qulay vaqtda emas va yo'lovchilarni uzoq vaqt kutishga majbur qilmoqda. So'nggi yillarda aholiga avtotransport xizmati ko'rsatishni yaxshilash, jamoat transporti yo'nalishlari tarmog'ini kengaytirish va harakat tarkibini zamonaviy, ekologik toza avtobuslar bilan yangilash bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi[1,2,3]. Xorijiy ekspertlar ishtirokida yangicha yondashuvlar asosida Toshkent shahar jamoat transportining yangi yo'nalishlari tarmog'i ishlab chiqildi. Shaharlarda avtobus yo'nalishlarining yangi tarmog'i joriy etilishini, avtomatlashtirilgan to'lov tizimi va avtomatlashtirilgan dispetcherlik xizmatining bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilishi 2024-yil 1-yanvardan boshlab Andijon viloyatida amalga oshirila boshladi. Shahar yo'nalishlarda yo'lovchilar tashishda avtobusdagi yo'lovchilar soni avtobuslarning to'liqsig'imidan ortik bo'lmasligi, Shaharlararo, tog', sayohat-ekskursiya yo'nalishlarida, bolalarni tashishda va bir martalik tashishlarda esa - o'tirish uchun belgilangan joylar sonidan ortiq bo'lmasligi kerak. Avtobus haydovchisi nazorat punktlarida (avtovokzallar, avtostansilar, dispetcherlik punktlari), harakat jadvalida nazarda tutilgan xollarda, chipta-hisobga olish varaqasida kelgan va jo'nab ketgan vaqti to'g'risida belgi qo'ydirishi kerak[4,5,6]. Avtobusda harakat xavfsizligiga xavf tug'diruvchi

nosozliklar paydo bo'lganda, shuningdek, haydovchi o'zini yomon his etganda avtobus harakati darhol to'xtatilishi kerak. Buhaqda eng yaqin avtovokzal (avtostansiya)



dispetcheriga yohud avtobus yoki haydovchini almashtirishi, tashishning bajarilishini ta'minlash choralari ko'rishi majburiy bo'lgan tashuvchiga xabar qilinadi[7,8,9]. Hozirgi kunda Andijon shahri bo'ylab 18-20 ta zamonaviy avtobuslar harakati yo'lga qo'yilgan. 1, 394, 75, 222 yo'nalishlari shular

jumlasidandir.



### ***1-rasm Avtobuslarning ko'chalarda bekatlarsiz to'xtab turish holati.***

Harakat intervali deb, avtobus yo'nalishining ma'lum bir joyidan o'tayotgan avtobuslar oralig'idagi vaqtga aytiladi. Shahar ichi yo'nalishlarida harakat intervalining qiymati 20 daqiqadan ortmasligi kerak. Ammo Andijon shahrining ko'plab hududlarida bu ko'rsatkich 20 daqiqadanham ortib ketish holatlari kuzatiladi. Xususan Andijon shahrining 222 yo'nalishida qatnovchi avtobuslar soni yetarli emasligi sabab aholi avtobusni 20 daqiqadan ko'p kutishiga to'g'ri keladi. Albatta bu holat doimiy emas ya'ni kunning tushlik vaqtida va kech soat 17:00 va 18:00 oralig'ida

shunday holatlar kuzatiladi. Harakat intervallarining to'g'ri tashkil etilishi avtobuslar harakatining uzluksiz va aholi uchun ko'p kutishlarsiz bo'lishiga xizmat qiladi. Harakat intervalidan bir ozgina chetlashish ham avtobuslarning yo'nalish bo'ylab taqsimlanishiga, ularning harakatlanish tezligiga, bekatta kutish vaqtlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi[10,11].

**Tig'iz vaqtlar.** Kunning bu vaqtlarida avtobuslar harakati jadallashadi va bu holat avtobus sig'imidan ortiqcha yuklama olishga sabab bo'ladi. Albatta avtobus sig'imidan ortiqcha yo'lovchilarni olish jamoat transporti foydalanuvchilariga noqulayliklar tug'diradi.

**Masalan:**

- Betartiblik yuzaga keladi.
- Havoning yaxshi aylanmasligi ayniqsa resperatorli kasali bor be'morlar uchun bu judaham havfli hisoblanadi.
- Avtobus uchun ortiqcha yuklama bo'lishi ( bu avtobus texnik xolatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda shahar jamoat transporti shahar va shaharga kirib keluvchi aholining transportga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun xizmat qiladi. Albatta bu ehtiyojni qondirish uchun harakat intervallarini aholiga qulay tarzda tashkil etish, shu bilan birga avtobus foydalanuvchilarining harakatlanishdagi qulayliklariga zarar yetkizmagan holda transport sig'imidan maksimal darajada foydalanishimiz kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;**

1. Насиров, И. З., & Гаффаров, М. Т. (2021). ЭЛЕКТРОННАЯ СИСТЕМА ПЛАТЕЖЕЙ В АВТОБУСАХ. *Естественнаучный журнал «Точная наука», 117, 2-5* [1].
2. Шодмонов С. А., G'ulomov F., 3 STEPS TO TRANSPORT DANGEROUS GOODS IN UZBEKISTAN *Естественнаучный журнал «Точная наука» Россия 2021 06 декабря 2021 г. Pages: 14-16. bet www.t-nauka.ru* [2].
3. Abduvayitovich, S. S., Jaloliddin o'g'li, A. S., & Axmadjon o'g'li, X. A. (2022). RESPUBLIKAMIZDA YUKLARNI TASHISHDA LOGISTIK XIZMATLARNI QO'SHNI RESPUBLIKALARDAN OLIB CHIQISH VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI [3].
4. Shodmonov, S. A. (2022). GLOBAL ELEKTR AVTOMOBILLARINI ISHLAB CHIQISH VA ELEKTR MASHINA ASOSLARI [4].
5. Shodmonov, S. A., & qizi Turg'unova, G. A. (2022). Railway Transport, its Specific Characteristics and Main Indicators. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 12, 61-66* [5].
6. Шодмонов, С. А. (2022). ОЦЕНКА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДОРОДСОДЕРЖАЩИХ СОСТАВНЫХ ТОПЛИВ В ДВИГАТЕЛЯХ ВНУТРЕННЕГО СГОРАНИЯ [6].
7. Sobirova T. QUYOSH PANELLARIDAGI YARIMO'TKAZGICHLI MATERIALLARNING AHAMIYATI //Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 75-84 [7].
8. Sobirova, T. (2023, April). ADVANTAGES OF NANOTECHNOLOGY AND ITS ROLE IN THE INDUSTRY. In *International Conference On Higher Education Teaching* (Vol. 1, No. 1, pp. 71-75) [8]
9. Sobirova, T. A. (2022). YARIMO 'TKAZGICHLI LAZERLAR. *Экономика и социум, (6-1 (97)), 1181-1187* [9].
10. Ahmadjon o'g'li, X. A. (2023). LOGISTIKADA SERVIS TIZIMINI TASHKIL QILISH. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 2(2), 176-182*[10].
11. Исаков, Ж. А. (2013). НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ НАГЛЯДНОСТИ В ПОДГОТОВКЕ СТУДЕНТОВ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *SCIENCE AND WORLD, 71* [11].